

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI VA USULLARI

Zuxriddinova Risolat Dilshodbek qizi

University of Economics and Pedagogy NOTM

“Maktabgacha ta'lim” Kafedrasi asisstant o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640907>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tabiat haqidagi ilk qarashlarni shakillantirishdagi xususiyatlar xaqida tushunchalar mavjud bo'lib ularni shakillantirishda Tabiiy fanlarning o'rni va ahamiyati haqida mavzu yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilk tushunchalar, tabiat, Tabiiy fanlar, boshlang'ich ta'lim.

Abstract. This article discusses the concepts of the characteristics of primary school students in the formation of their initial views on nature, and the role and importance of natural sciences in their formation.

Keywords: initial concepts, nature, Natural sciences, primary education,

Аннотация. В данной статье рассматриваются концепции характеристик учащихся начальной школы в формировании их первоначальных взглядов на природу, а также роль и значение естественных наук в этом процессе.

Ключевые слова: начальные понятия, природа, естественные науки, начальное образование,

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning hayotidagi ilk va asosiy bosqich bo'lgan, va bu davr boshlang'ich bilimlarni shakillantirishda eng asosiy bosqich xisoblanadi. Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi tabiatning xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini va jadal rivojlanib borayotgan jarayonlarini tushunishga yordam berishdir. Bu bilimlar o'quvchilarning dunyoni ko'rish, tushunish, muammolarni hal qilish va jadal fikrlash qobiliyatlarini oshirishga, tabiatga bo'lgan ilk qarashlarini, mehrini shakillanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tabiiy fanlar o'quvchilarga jismoniy salomatlik, ekologik o'zgarishlar, ekologik madaniyatlarini va yer sharida bo'layotgan global ekologik muammolarga befarq bo'lmay unga qarshi kurashish uchun o'zining g'oyalarini paydo bo'lishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish, ularning o'zlarini ma'rifatli va mas'uliyatli foydalanuvchilar sifatida o'rgatishga yordam beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishning takomillashtirishida o'qitish usullari va vositalari juda muhimdir. Amaliy mashg'ulotlar, laboratoriyalar, tabiatshunoslik safarlar, vizual materiallar va boshqalar o'quvchilarning bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llay olish va o'rganishlarini ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, interaktiv darsliklar, video darslar ko'rgazmali vositalar va onlayn resurslar ham o'quvchilarning tushunish va bilimlarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar tabiatning muammolari va jarayonlarini tahlil qilish, o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlash, va ularni ta'limni mustahkamlash uchun moslashtirishda bajarilishi kerak bo'lgan muammolarni aniqlashda hamkorlik qilishlari lozim. Tabiiy fanlarni o'qitishda tajriba va amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yangi texnologiyalar va innovatsion usullar o'quvchilarni tabiatni o'rganishda qiziqitirish va ularga o'zlarini tushunishlari uchun qiziqarli va samarali vositalarni taqdim etishga yordam beradi. Tabiiy fanlarni o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmun mohiyati, tabiiy fanlarni o'rganishni samarali va qiziqarli qilish uchun pedagogik, amaliy va innovatsion usullarni o'rganishni talab qiladi. Bu bilimlar o'quvchilarni tabiatning muammolari va jarayonlarini tahlil qilishga, o'zlarini dunyo ehtiyotkorlari

sifatida o'rganishga, va jadal fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi davrdagi zamonaviy rivojlanayotgan davrni hisobga olsak, zamonaviy vositalardan unumli foydalanish darslarslikdagi mavzularni o'quvchi yoshiga nisbatan yengil tushuncha xosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiat resurslarining kamayishi kabi global masalalar insoniyatni tabiat bilan uyg'un yashashga undamoqda. Shu sababli, yosh avlodni bu masalalarga befarq bo'lmaslik ruhida tarbiyalash eng avvalo maktabdan, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanishi zarur. Boshlang'ich ta'lim — bu o'quvchining shaxsiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri, hissiyoti, dunyoqarashi, xulqatvori va o'qishga bo'lgan munosabati shakllanadi. Shu bois boshlang'ich sinflarda beriladigan har bir fan nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Tabiiy fanlar — insonni o'rab turgan olamni, uning qonuniyatlarini, tabiatdagi uyg'unlik va o'zaro bog'liqlikni o'rgatuvchi fanlar majmuasidir. Ular o'quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki tabiatni sevish, uni asrash, kuzatish va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali bola tabiatni his etadi, undagi go'zallikni angelaydi va shu orqali axloqiy, estetik, ekologik fazilatlarini o'zlashtira boshlaydi. Hozirgi kunda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiat resurslarining kamayishi kabi global masalalar insoniyatni tabiat bilan uyg'un yashashga undamoqda. Shu sababli, yosh avlodni bu masalalarga befarq bo'lmaslik ruhida tarbiyalash eng avvalo maktabdan, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanishi zarur. Asosiy qism: Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning o'qitilishi o'quvchilarga atrofmuhit haqidagi dastlabki ilmiy tushunchalarni beradi. Bu bilimlar bolada dunyoni anglash, hodisalarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, tabiiy fanlar darslari o'quvchilarning tafakkurini o'stiradi, ularni mustaqil fikrlashga, kuzatuvchanlikka va ijodkorlikka o'rgatadi. Tabiiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati, eng avvalo, bolalarda tabiatni sevish, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish bilan namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatishga, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishga, suv va havo tozaligini saqlashga jalb etadi. Shu orqali o'quvchilar ekologik madaniyat asoslarini egallaydilar. Masalan, o'quvchilar bilan birgalikda daraxt ekish, gullarni parvarish qilish, “Tabiatni sevib asraylik” shiori ostida kichik loyihalar tashkil etish bolalarda tabiatga mehr uyg'otadi. Shuningdek, tabiiy fanlar orqali o'quvchilarda axloqiy tarbiya ham shakllanadi. Bolalar tabiatda har bir narsa o'z o'rniga ega ekanligini angelaydi, tirik mavjudotlarga nisbatan mehr, ehtiram, g'amxo'rlik tuyg'ulari paydo bo'ladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga hayvonlar hayotidagi o'zaro yordam, o'simliklarning inson uchun foydasi haqida tushuntirar ekan, ularda insonparvarlik va minnatdorlik hissini tarbiyalaydi. Tabiiy fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlari estetik tarbiya bilan ham chambarchas bog'liq. Tabiat manzaralarini kuzatish, gullarning rang-barangligi, qushlarning sayrashi, yomg'irning tovushi bolada go'zallik, zavq bag'ishlaydi. O'quvchi tabiat go'zalligini his qilgan sayin, unda estetik did shakllanadi. Tabiat go'zalligini rasm, she'r yoki hikoya orqali ifodalash esa bolalarning ijodkorligini oshiradi. Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni o'qitishning yana bir muhim tarbiyaviy jihati — ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bolalar o'z atrofidagi har bir hodisaning sababi borligini tushunadi, tabiatdagi tartib va qonuniyatlarni angelaydi. Bu esa unda mantiqiy fikrlashni, kuzatish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar tajribalar o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, hodisalarni solishtirish orqali ilmiy tafakkur asoslarini egallaydilar. O'qituvchi tabiiy fanlarni o'qitishda faqat nazariy ma'lumot bilan cheklanmay, amaliy mashg'ulotlar, tajribalar, kuzatuvlar va o'yinli metodlardan keng foydalanishi kerak. Masalan, “Suvning aylanishi”, “Fotosintez”, “Havo ifloslanishining oqibatlari” kabi mavzularda o'tkaziladigan tajribalar

o'quvchilarda nafaqat bilim, balki hayrat, qiziqish va mas'uliyat hissini uyg'otadi. Tabiiy fanlar orqali bolalarda mehnatsevarlik va sabr-toqat fazilatlarini ham shakllanadi. O'quvchilar o'simlikni parvarish qilganda, tajriba o'tkazganda, natijani kutganda sabrni o'rganadilar. Shu tarzda tabiiy fanlar o'quvchilarni nafaqat bilishga, balki hayotga tayyorlaydi. Shuningdek, tabiiy fanlar darslarida o'yinli texnologiyalar, multimedia vositalari va ekologik loyihalardan foydalanish ularning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Masalan, “Tabiat do'stlari” nomli rolli o'yinlarda bolalar turli rollarni ijro etish orqali tabiatni asrash g'oyasini his etadilar. Bu esa ularning nafaqat bilimini, balki ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati o'qituvchining shaxsiy namunasi bilan ham chambarchas bog'liq. O'qituvchi tabiatni sevuvchi, ekologik mas'uliyatli shaxs bo'lsa, o'quvchilar ham aynan shu fazilatlarini o'zlashtiradi. Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni o'qitishning yana bir muhim tarbiyaviy jihati — ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bola o'z atrofidagi har bir hodisaning sababi borligini tushunadi, tabiatdagi tartib va qonuniyatlarni anglaydi. Bu esa unda mantiqiy fikrlashni, kuzatish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa: Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ushbu fanlar o'quvchilarni nafaqat tabiatni o'rganishga, balki uni sevish, asrash va qadrlashga o'rgatadi. Tabiiy fanlar darslari orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat, axloqiy fazilatlar, go'zallikka mehr, kuzatuvchanlik, ilmiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. O'qituvchi tabiiy fanlarni o'qitishda turli interaktiv metodlar, tajriba va loyihalardan foydalanar ekan, o'quvchilarda faollik, ijodkorlik, hayotiy qadriyatlarga hurmat va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Natijada tabiiy fanlar bolaning nafaqat bilimi, balki butun shaxsiy kamolotiga xizmat qiluvchi asosiy omilga aylanadi. Demak, tabiiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati — bu bolada tabiatni sevish, hayotni qadrlash, ilmni o'rganish va insoniylik fazilatlarini shakllantirish jarayonidir. Shu bois har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi tabiiy fan darslarini nafaqat o'qitish, balki yosh avlodni ongli, mas'uliyatli va tabiatparvar inson sifatida tarbiyalash vositasi deb bilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yuldasheva Sh., Ortiqova N. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: “Tafakkur”, 2020.
2. G'ofurov A. Ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2016.
3. Sayfullayev G., Alimova L. (2021). Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda amaliy ishlarni tashkil etish // Scientific progress. №6.
4. Bransford J.D., Braun A.L., Cocking R.R. (2000). Odamlar qanday o'rganadi: miya, aql, tajriba va maktab. Vashington DC: Milliy Akademiya matbuoti.
5. Mamanazarovna D. M., Ergashovna J. B. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – C. 138-141.